

## TILSHUNOSLIKDA TERMIN, TERMINOLOGIYA, TERMINOLOGIK MAYDON TUSHUNCHALARINING O'Z-ARO FARQLANISHI XUSUSIDA

**Begjanova Aysiliu Maxmudovna**

Qoraqalpoq davlat universiteti 1-kurs tayanch doktoranti.

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda tilshunoslikka oid termin, terminologiya, terminologik maydon, terminosistema va o'zbek tilidagi «termin» va «atama» tushunchalarining o'zaro farqlanishi va chegaralanishi masalalari aks ettirilgan.

**Kalit so'zlar:** termin, terminologiya, terminologik maydon, terminosistema, atama.

**Аннотация:** В данном тезисе отражены вопросы взаимной дифференциации и разграничения терминов, терминологии, терминологического поля, терминосистемы и понятий «термин» и «atama» в узбекском языке относящихся к лингвистике.

**Ключевые слова:** термин, терминология, терминологическое поле, терминосистема, понятие «atama».

**Annotation:** This thesis reflects the issues of mutual differentiation and demarcation of the term, terminology, terminological field, terminology system and Uzbek language «term» and term «atama» related to linguistics.

**Keywords:** term, terminology, terminological field, terminosystem, term «atama».

Tilshunoslikda bir qator tilshunos olimlar termin, terminologiya va terminologik maydon tushunchalariga oid tadqiqotlar o'tkazib, o'z fikr va qarashlarini turlicha bayon qilgan.

Bugungi kunga kelib tilshunoslikda “**terminologiya**”, “**terminosistema**”, “**terminologik maydon**” tushunchalari xususida, ularni semantik jihatdan o'z-aro farqlash va chegaralash masalasida tilshunos olimlar umumiy hamda yakdil bir to'xtamga, fikrga kelganicha yo'q. N.V.Vinogradovning nazariyasiga ko'ra: “...mazkur tushunchalarni o'z-aro farqlashda va semantik jihatdan chegaralab, tasniflashda summativ (mexanizm printsiplariga asoslangan) va funktsional (dinamik) turlarga ajratib tavsiflash va izohlash kerak” ekanligi ta'kidlanadi” [Vinogradova N.V.]. V.M. Leychik esa N.V.Vinogradovdan farqli o'laroq, “terminologiya”, “terminosistema”, “terminologik maydon” tushunchalariga nisbatan o'zgacha tarzda yondashadi. Uning ilmiy nazariyasiga asosan, mazkur uch tushunchani semantik jihatdan o'zaro farqlash asosida ilmiy-nazariy kontseptsiya va kasbiy bilimlar majmui aks etishi qayd etiladi. Uning fikr va qarashlarida “**terminologiya**”, “**terminosistema**”, “**terminologik maydon**” tushunchalari bir-biriga nisbatan qarama-qarshi qo'yiladi, bunda “**terminologiya**” muayyan bir bilim sohasida mavjud bo'lgan tushunchalarning o'z-aro lisoniy aloqalarini aks ettiruvchi yagona kontseptual va nazariy lisoniy leksik qatlam, deb hisoblansa, “**terminosistema**”ni esa ma'lum sohaga oid terminlarning o'z tarkibiga qamrab olgan terminlar majmui sifatida izohlaydi, shuningdek, fan yoki texnika sohasi bilan bog'liq hech qanday kontseptsiya ham da nazariyani o'zida namoyon qilmaydi, degan fikrni ilgari suradi[Leychik V.M., 2009:56] A.N.Baranov ham V.M.Leychikning qarashlarini qo'llab - quvvatlagan holda, terminlar nazariyasiga ko'ra, muayyan terminologik tizimni tashkil qiluvchi terminologik birliklar ma'lum ilmiy va kasbiy terminosistemani vujudga kelishiga xizmat qiladi - degan fikr bilan chegarlanadi[Baranova A.N., 2003:360]. Biroq,

terminologiya muammolari bilan maxsus shug'ullangan taniqli tilshunos olimlar A.V.Superanskaya, N.V.Podolskaya va N.V. Vasilevalar bu masala xususida o'z fikrlarini shunday bayon qilishadi: "...zamonaviy ilmiy terminologiya – bu terminlar majmui bo'lib, har bir elementning semantik-funksional jihatdan qo'llanishida, umuman, mavjud bo'lishida, ma'lum darajada chegaralanganlik xususiyatiga ega bo'lgan, tilda “yashab qolishi” uchun real va optimal sharoitga ehtiyoj sezadigan, tabiiy hamda sun'iy tarzda shakllanadigan, hosil bo'ladigan leksik qatlamdir[Superanskaya A.V., Podolskaya N.V., va Vasileva N.V.,2009:248].”

Ma'lumki, o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgandan so'ng, xususan, mamlakatimiz istiqloлга erishgandan keyin ba'zi bir sub'ektiv omillar natijasida “**termin**” tushunchasi o'rnida “**atama**” derivatini qo'llash ancha faollashdi. Bu jarayonga bir qaraganda baynalmilal o'zlashma hisoblangan “**termin**”ning funksional-semantik jihatiga muqobil va mos keluvchi o'z so'zning qo'llanilishi ma'quldek tuyulishi mumkin. Shu o'rinda bir savol tug'iladi. Bu ikki til birligini sinonim tarzda qo'llash maqsadga muvofiqmi? Yoki yo'qmi?. Bizningcha, maqsadga muvofiq emas, albatta. Terminshunoslik muammolari bilan maxsus shug'ullangan o'zbek olimlaridan biri A.Hojiev “**termin**” so'zini “**atama**” derivati bilan o'zaro almashtirib qo'llash xususida jiddiy fikr va mulohaza yuritadi va ularni bir-birini o'rnida ishlatish noto'g'ri, ekanligini ta'kidlaydi[Madvaliyev A., 2017:28-30]. Shularni hisobga olgan holda xulosa qilish mumkinki, “**termin**” o'zlashmasini ma'lum kasbiy sohalar, ilm-fan va texnika sohalarida qo'llaniluvchi nominativ va signifikativ xususiyatga ega bo'lgan so'z va so'z birikmalari sifatida qarash mumkin, xolos. “**Atama**” so'zini esa shartli ravishda qo'yilgan nomlar (nomenlar)ga nisbatan, xususan, geografik ob'ektlar hamda joy nomlari (toponimlar)ga nisbatan qo'llash, arab tilidan o'zlashgan “**istiloh**” o'zlashma so'zini esa tarixiy ob'ektlar, insoniyat o'tmishida mavjud bo'lgan tarixiy manbalar matnida uchrovchi tushunchalarga nisbatan qo'llash to'g'ri bo'ladi,- deb hisoblaymiz.

Shunday qilib terminologiya haqida so'z yuritganimizda, shuni alohida qayd etish lozimki, muayyan sohalarga tegishli, kasbiy faoliyat sohasiga xizmat qiluvchi terminlardan tarkib topgan terminologiya, ya'ni terminologik tizim ilmiy fan sifatida umumadabiy leksikaning ajralmas bir aspekti bo'lib, terminlar va terminologik sistemalarning yaratilishi va faoliyat ko'rsatish qonuniyatlarini o'rganuvchi fandır. Ba'zi tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, tilshunoslikda tushuncha bilan termin o'rtasidagi tafovutli jihatlarni aniqlashtirish masalasi hali-hanuz bahstlab va munozarali holat bo'lib qolmoqda. Bunda, har qanday tushuncha terminlar orqali ifoda etiladimi yoki har qanday terminda ma'lum tushunchalar chegaralangan holda aks etadimi, - degan fikr so'roq ostiga olinadi. Biz bunga aniqlik kiritish maqsadida quyidagilarni e'tirof etamiz. “**Termin**” – terminologik tizimning asosiy ob'ekti sifatida qaralib, u muayyan ilmiy va kasbiy tushunchalarning aniq aks ettiradi. Ammo, u ma'lum ta'rifga, tasnifga va tavsifga ehtiyoj sezadi, termin orqali ifoda etilayotgan tushuncha esa insonning kognitiv qobiliyati hamda faoliyati bilan bog'liq bo'lgan tasavvurni til elementlari orqali namoyon bo'lishi bilan izohlanadi. Tushuncha biron bir ob'ekt, voqelikka nisbatan mavjud bo'lgan tasavvurni umumlashtirsa, termin esa mazkur jarayonlarni farqlashga va konkretlashtirishga xizmat qiladi. Tushuncha kognitiv bilishga, termin esa tasnifga ishora qiladi.

Shuni qayd etish lozimki, bugungi kunga kelib tilshunoslikda “terminologiya” bilan “terminologik maydon” tushunchalari tadqiqotchilar tomonidan oxirigacha to'liq o'rganilib, yakdil xulosaga kelingan emas.

E.M. Nayveltning ta'kidlashicha, “Terminologik maydon – boshqa sohalar va tarmoqlarning terminlar majmui sifatida qaraladi, ma'lum bir fan yoki soha doirasida o'zaro birlashtirilgan so'zlar va so'z birikmalaridir. Mazkur so'zlar va so'z birikmalari ekstralingvistik

faktorlar asosida vujudga kelib, lingvistik ifoda vositalarini tashkil etadi” – degan fikrni ilgari suradi[Nayvelt E.M., 1977:183]. U qo‘shimcha tarzda, terminologiya inson kasbiy faoliyatini turli sohalar ob‘ektlari va tushunchalarini nomlaydigan va umumiy foydalanishda bo‘lmagan so‘z va iboralarni o‘z ichiga olgan maxsus lug‘atning bir qismi ekanini qayd etadi .

Tilshunos olimlarning yuqoridagi nazariy fikr va qarashlarini inobatga olgan holda “termin” tushunchasini unga yondosh bo‘lgan tushunchalar, ya’ni “termin so‘zlardan”, “nomenklaturadan”, “professionalizmlardan”, “nomenlardan”, “pragmonimlardan”, “atama” va “terminoid” tushunchalaridan farqlashimiz maqsadga muvofiq, albatta.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Виноградова Н. В. Терминосистема немецкой электронной коммерции [Электронный ресурс]: автореф. дисс. канд.фил.наук. URL: <http://cheloveknauka.com/terminosistema-nemetskoy-elektronnoy-kommertsii>.
2. Лейчик В. М. Терминоведение: предмет, методы, структура. Изд-е 5-е. М.: Книжный дом «Либроком», 2009. 56 с.
3. Баранов А. Н. Введение в прикладную лингвистику: учебное пособие. Изд-е 2-е, исправленное. М.: Эдиториал УРСС, 2003. 360 с.
4. Суперанская А. В., Подольская Н. В., Васильева Н. В. Общая терминология: вопросы теории / отв. ред. Т. Л. Канделаки. Изд-е 5-е. М.: Книжный дом «Либроком», 2009. 248 с.
5. Madvaliyev A. O‘zbek terminologiyasi va leksikografiyasi masalalari. T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2017.-B.28-30.
6. Найвельт Е.М. Термин, терминополь, терминосистема//Лингвистика и проблемы стиля. ЛГПИ.им.А.И. Герцена. 1977.-183 с.